



Shohistaxon TOJIBOYEVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b PhD

DSc, dotsent M. Boltayeva taqrizi asosida

AXBOROT XURUJI SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot xuruji sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ularning bilimlarini tahlil qilish, baholash va yaxshilash qobiliyatini rivojlantirish – ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada tanqidiy fikrlashning pedagogik jihatlari, uning o'qituvchilar faoliyatiga qo'llanilishi va o'qituvchilarga shunday qobiliyatlarni o'rgatish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Axborot xuruji, tanqidiy fikrlash, metodik asoslar, kompetensiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, reflektiv yondashuv, ijtimoiy ong, axborot savodxonligi, innovatsion ta'lim, media xabardorlik, o'qituvchilik mahorati.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CRITICAL THINKING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS IN THE CONTEXT OF AN INFORMATION ATTACK

Annotation

This article analyzes the methodological foundations of the formation of the competence of critical thinking of future English teachers in the context of an information attack. Teaching future teachers to think critically, developing their ability to analyze, evaluate and improve their knowledge – plays an important role in improving the quality of Education. The article examines the pedagogical aspects of critical thinking, its application to the activities of teachers, and the ways in which students are taught such abilities.

Key words: Information attack, critical thinking, methodological foundations, competence, pedagogical technology, interactive methods, reflective approach, social awareness, information literacy, innovative education, media awareness, teaching skills.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОЙ АТАКИ

Аннотация

В данной статье анализируются методические основы формирования компетенции критического мышления будущих учителей английского языка в условиях информационной атаки. Обучение будущих учителей критическому мышлению, развитие способности анализировать, оценивать и улучшать свои знания – играет важную роль в повышении качества образования. В статье рассматриваются педагогические аспекты критического мышления, его применение в деятельности учителей и способы обучения учащихся таким способностям.

Ключевые слова: Информационная атака, критическое мышление, методические основы, компетентность, педагогические технологии, интерактивные методы, рефлексивный подход, социальная осведомленность, информационная грамотность, инновационное образование, медиа-осведомленность, педагогические навыки.

Kirish. Globallashuv jarayonida axborot xuruji (informatsion bosim, manipulyatsiya, feyk xabarlar va h.k.) butun dunyoda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida axborot xurujiga qarshi immunitetni shakllantirish, xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'qituvchilarga mustaqil fikr yuritish, muammoli vaziyatlarni aniqlash va tahlil qilish, ma'lumotlarning xolis va xatardan xoli bo'lishini baholash, to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Ingliz tili fanini o'rganish jarayonida esa nafaqat lingvistik kompetensiya, balki madaniy, ijtimoiy, axborotga nisbatan sezgirik va tanqidiy yondashuv ham kamol topishi zarur. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, solishtirish, muqobil qarorlar qabul qilish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Filolog olim O.T. Qayumovning ta'kidlashicha, “tanqidiy fikrlash – bu inson

ongining faolligi, ijtimoiy voqelikni anglash va unga ongli yondashuv asosidir”[1]. Mazkur ko'nikma, ayniqsa, til o'qitishda juda muhim bo'lib, til orqali uzatilayotgan axborotlar mazmunini to'g'ri tushunish, baholash va unga nisbatan mustaqil pozitsiya bildirish imkonini yaratadi. Axborot xuruji zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali inson ongiga noto'g'ri, biryozlama yoki manipulyativ axborotlarni singdirishga yo'naltirilgan holatdir. Bunday sharoitda tanqidiy fikrlash nafaqat himoya vositasi, balki tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida maydonga chiqadi. Tanqidiy fikrlash orqali shaxs atrofdagi voqelikni chuqur tahlil qiladi, noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlashga intiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari nafaqat lingvistik kompetensiyaga, balki metodik, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarga ham ega bo'lishi zarur. Ular kelajakda ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashga asoslangan yondashuvni shakllantira olishi uchun o'zlari ushbu ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Chet tilini o'rgatishda tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlar qo'llansa, o'qituvchilarda ham tahliliy va mustaqil fikr yuritish rivojlanadi. Bugungi kunda global miqyosda keng

tarqalgan axborot xuruji – ya'ni yolg'on, manipulyativ yoki ortiqcha ma'lumotlar oqimi – aynan shunday fikrlash salohiyatini shakllantirishni taqozo etadi. Shu sababli, pedagogik ta'lim jarayonida bu borada aniq metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Axborot xuruji sharoitida bu ko'nikmalar ularga ma'lumotlarni saralash, tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonni pedagogik jarayonga to'g'ri integratsiya qilish esa ilg'or metodik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Kelajakdagi ingliz tili o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiruvchi murabbiy bo'lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiya.

Axborot xuruji sharoitida shaxsning tanqidiy fikrlashini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Xususan, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ularni nafaqat tilni o'rgatuvchi, balki ma'lumotlarni tahlil qilish, soxta va yolg'on axborotni aniqlash, asosli xulosalar chiqarishga o'rgatuvchi mutaxassis sifatida shakllantirish zaruratga aylangan. Tanqidiy fikrlash tushunchasi pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, Amerikalik pedagog olim R.Ennis tanqidiy fikrlashni "qarorlar qabul qilishda va e'tiborli, puxta o'ylangan xulosalar chiqarishda yordam beruvchi mantiqiy va reflektiv fikrlash jarayoni" deb ta'riflaydi. Shuningdek, tanqidiy fikrlovchi shaxs, Ennis ta'kidlashicha, dalillarga asoslangan, ochiq fikrli va e'tiqodlarga ko'r-ko'rona ergashmaydigan inson bo'lishi lozim[1].

P. Paul va L.Elder tanqidiy fikrlashni "o'z fikrlash jarayonini chuqurroq tahlil qilish va uni yaxshilashga yo'naltirilgan intellektual mehnat" sifatida tushuntiradi. Ular ta'lim jarayonida ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun o'qituvchilar o'zlari avvalo tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi[3]. Axborot xuruji sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasi Rossiya pedagogikasida ham dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina rus olimlari tanqidiy fikrlashni o'quvchi yoki talabaning informatsion bosimga bardosh berishi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi, mustaqil fikr yurita olishi bilan bog'liq holda talqin etishadi. Rossiyalik olim T.V.Kudryavtseva tanqidiy fikrlashni "shaxsning axborotni ongli qabul qilish, uni baholash va unga nisbatan munosabat bildirishi orqali qaror qabul qilish layoqati" sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, zamonaviy axborot makonida o'quvchi o'qituvchining asosiy vazifasi – informatsion filtrni shakllantirishdir[4]. I.A.Zimnyaya esa o'z asarlarida tanqidiy fikrlashni shaxsiy-intellektual kompetensiyaning asosiy elementi deb hisoblaydi. U fikrlash faoliyatining samaradorligi va reflektivlik darajasini asosiy indikator sifatida ko'rsatadi[5]. Shuningdek, Bloom'ning taksonomiyasi asosida qurilgan darslar, ayniqsa yuqori bosqichlardagi "tahlil qilish", "sintez qilish" va "baholash" bosqichlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlar muhim o'rin tutadi, bunda til, madaniyat va ijtimoiy kompetensiyalar uyg'unlashadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy o'qituvchi faqat til o'rgatuvchi emas, balki media savodxonlik, axborot xavfsizligi va axborotlarni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini ham shakllantiruvchi bo'lishi kerak (Potter, 2004). Shuning uchun ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda axborotlar oqimini saralash, yolg'on va manipulyativ ma'lumotlarga qarshi immunitet shakllantirish muhim sanaladi. Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, tanqidiy fikrlash bo'yicha adabiyotlar ushbu ko'nikmani rivojlantirish uchun nazariy

asoslarni ta'minlaydi va ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu usullar o'qituvchilarning o'zlari ham tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Muammoli o'qitish – Talabalarga muammoli savollar berish, muqobil echimlar ustida ishlash orqali tanqidiy tafakkurni faollashtirish.

Debat va bahs-munozara – Ingliz tilidagi ijtimoiy mavzular asosida talabalarining o'z fikrini asoslab himoya qilishi.

Keys-stadi (Case Study) – Hayotiy vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish orqali tahliliy fikrlashni rivojlantirish.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash – Har bir darsdan so'ng o'z faoliyatini tahlil qilish, o'rganilgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish.

Multimedia va raqamli vositalar – Tanqidiy fikrlashni raqamli resurslar asosida shakllantirish: video tahlil, interaktiv topshiriqlar, onlayn forumlarda munozaralar.

Natijalar. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar, onlayn manbalar, turli media platformalardan foydalanish orqali katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelishmoqda. Bunday sharoitda yolg'on xabarlarini haqiqiydan ajrata bilish, turli manbalardagi ma'lumotlarning to'g'ri-noto'g'riligini tekshirish, tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari shu muhitda ishlashlari, nafaqat o'zlari, balki o'quvchilari uchun ham axborot xavfsizligi va mustaqil fikrlashni rag'batlantirishlari uchun asos bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, olib borilgan kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari quyidagi natija va tendensiyalarni ko'rsatdi:

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishi. Integratsiyalashgan darslar, munozara (debate) usullari va muammoli ta'lim metodlaridan foydalangan holda o'qitish jarayonida talabalarining mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, axborot oqimini filtrlash kabi ko'nikmalari aniq shakllana boshladi. Bu jarayon talabalarining individual o'zgarishlarida ham, guruh bilan ishlashda ham o'z ifodasini topdi.

Mediamadaniyat va axborot savodxonligi darajasining oshishi. Tanqidiy fikrlash bo'yicha mashg'ulotlar doirasida, xususan, xorijiy yoki mahalliy manbalardan olingan turli xil matnlar (yangiliklar, reklamalar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar)ni tahlil qilish orqali talabalar mediamuhitga nisbatan hushyorlik bilan yondashishni o'rganishdi. Ular ishonchli yoki ishonchsiz manbalarni farqlash, qay darajada xolis axborot ekanini aniqlash, soxta xabarlar yoki manipulyatsiyaga qarshi shubha-tekshiruv (fact-checking) usullarini [8] faol qo'llay boshladilar.

Metodik kompetensiyaning takomillashuvi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari mediaresurslarni didaktik vosita sifatida ishlatish, dars mavzularini qiziqarli case-keyslar bilan boyitish, integrativ mashg'ulotlardan foydalangan holda o'quvchilarda ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini o'zlashtirishdi. Natijada talabalarda metodik ko'nikmalar chuqurlashgani, dars rejalarini puxta tuzish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va ularni faollikka undash imkoniyati oshganligi qayd etildi.

O'qitish jarayonida interfaol yondashuvlarning kuchayishi. Debatlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va guruhiy loyiha ishlari talabalarining faolligini oshirdi. Interfaol mashg'ulotlarda har bir ishtirokchi fikr bildirishi, o'z nuqtayi nazarini asoslab berishi va boshqalarning qarashlarini ham tahlil qilish zarurati ijobiy natijalar berdi. Buning natijasida,

o'quv jarayonida faol-ta'lim metodlari ustuvor o'rin tutib, talabalarning ijodiy fikrlashi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanib bordi.

Ijodiy va tahliliy faoliyatning kuchayishi. Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar (masalan, "fake" va "real" xabarlarga oid taqqoslash, turli matnlarni lingvistik-tahliliy jihatdan o'rganish, madaniy farqlarni hisobga olgan holda so'zlashuv amaliyoti) talabalarni izlanish, ijodiy yondashuv, notiqlik va bahs-munozarada ishtirok etish borasida faollashtirdi. Natijada, ularning fikr ifodalash doirasi kengayib, matn bilan ishlash tezligi va sifati yaxshilandi.

Ijtimoiy-ma'naviy immunitetning shakllanishi. Axborot xurujiga qarshi kurashish mas'uliyati haqida o'tkazilgan trening va bahslar axborotni tanqidiy qabul qilish orqali shaxsiy nuqtayi nazarni himoya qilish hamda haqiqiy dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish ko'nikmasini mustahkamladi. Bundan tashqari, talabalar jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarga xolis baho berish, turli yangiliklarning ijtimoiy ta'sirini tushunish va ongli qaror qabul qilish bo'yicha yanada puxta tayyorgarlikka ega bo'ldilar.

Umuman, olib borilgan ishlanmalar va tatbiq etilgan metodlarning natijasi sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash malakasi shakllanganini, mediamadaniyatni rivojlantirish bo'yicha barqaror ko'rsatkichlarga erishilganini hamda mustaqil va ijodiy yondashuv kuchayganini ta'kidlash mumkin. Ushbu yutuqlar o'quv jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, kuchli

ilmiy-uslubiy tayanch yaratish va doimiy refleksiya olib borish orqali yanada mustahkamlanib boradi.

Xulosa. Axborot xuruji sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda metodik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek pedagogik olimlarining ilmiy qarashlari, ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion metodlar uyg'unlashgan holda qo'llansa, ta'lim sifati oshadi, shaxsning intellektual salohiyati rivojlanadi. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan o'qituvchi esa nafaqat o'z faoliyatida muvaffaqiyatli bo'ladi, balki o'quvchilarda ham mustaqil, asosli fikrlash madaniyatini shakllantira oladi.

Tanqidiy fikrlash bo'yicha mustahkam poydevorga ega bo'lgan pedagoglar media muhitda yuzaga keladigan axborot xurujlariga bardoshli, raqobatbardosh va ilmiy-nazariy jihatdan etuk shaxslarni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Bu, o'z navbatida, butun jamiyatda sog'lom fikr yuritish madaniyatini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri ma'lumotni tanlash, yolg'ondan xoli qarashga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda, kelajakda ingliz tili o'qituvchilari nafaqat til, balki keng ma'nodagi axborot, madaniy va ilmiy muloqotni ham sifatli yo'lga qo'yish, talabalarga tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish madaniyatini singdirish orqali ta'lim rivojiga munosib hissa qo'shishlari lozim.

ADABIYOTLAR

1. Qayumov O.T. "Pedagogik tafakkur va tanqidiy fikrlash3, Toshkent, 2018.
2. Ennis R. H. A concept of critical thinking. – Harvard educational review, 1962. – C. 84.
3. Elder L. Richard Paul's Contributions to the Field of Critical Thinking and to the Establishment of First Principles of in Critical thinking //Inquiry: Critical Thinking Across the Disciplines. – 2016. – T. 31. – №. 1. – C. 8-33.
4. Axmedova M. Pedagogik kompetentlik //uslubiy qo'lanma.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU. – 2018.
5. Zimnyaya I. A. Pedagogical psychology //Rostov-on-don: Phoenix. – 1997. – C. 224.
6. Jo'rayev A. "Innovatsion metodlar asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish", Ilmiy-uslubiy to'plam, 2020.
7. Islomov I. "Zamonaviy ta'limda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning metodik asoslari", Monografiya, 2022.
8. Muhammadiyeva, D. K., and L. M. Uzoqov. "Yolg'on xabarlarini aniqlashda sifatli datasetlar yaratishning ahamiyati va texnikalari." Science and innovation 3.Special Issue 59 (2024): 65-71.